



EY, SARVI RAVON - XALQ QALBIDAN JOY OLGAN MUMTOZ ASAR.

*Andijon davlat pedagogika institute
Ijtimoiy-gumanitarfanlar va san'at fakulteti
Musiqiy ta'lim yo'nalishi 1-kurs talabasi
Qurbonova Rahimaxon Shermuxammad Qizi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada maqom san'ati xaqida so'z boradi. 'Ey, sarvi ravon asari; tahlil qilinib, asardagi ,kuy va ohanglar, xaqida ma'lumot beriladi. Tinglovchi va ijrochi orasidagi hissiy kechinmalar xam ba'tafsil yoritilib, asar matni xam aloxida taxlil qilinadi. Milliy cholg'ular bilan asar uyg'unligi xam yoritib beriladi. Mumtoz adabiyotimizning go'zal shoirasi Nodira (Mohlaroyim) xamda, sozanda va bastakor Saidjon Kalonov xayoti va ijodi xaqida qisqacha ma'lumot berib o'tiladi.*

Kalit so'zlar: *Ey, sarvi ravon, Nodira, Saidjon Kalonov, maqom san'ati, musiqiy meros, ustoz-shogird, oshiq, bastakor, g'azal.*

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabr kuni e'lon qilingan "O'zbek milliy maqom san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori muhim ahamiyat kasb etdi.

Xalqimiz madaniy merosining ajralmas qismi bo'lgan milliy maqom san'ati o'zining qadimiy tarixi, teran falsafiy ildizlari, betakror uslubiy va boy ijodiy an'analari bilan ma'naviy xayotimizda muxim o'rin egalladi. Asrlar davomida ulug' shoir va olimlar, moxir bastakorlar, xofiz va sozandalarning mashaqqatli mexnati va fidoyiligi, ijodiy tafakkuri bilan sayqal topib kelayotgan ushbu noyob san'at nafaqat yurtimiz va



Sharq mamlakatlarida, balki dunyo miqyosida katta shuxrat va e'tibor qozongan. Maqom san'atining gultoji bo'lgan "Shashmaqom" YUNESKO tomonidan insoniyatning nomoddiy madaniy merosi sifatida e'tirof etilgani xamda uning Representativ ro'yxatiga kiritilgani buning yaqqol tasdig'idir".

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Maqom (arab tilida-o'rin, joy, tovush, parda daraja ,ko'plik shakli maqomot) degan ma'nolarni bildiradi. Musiqa istilohida esa maqom-musiqa cholg'ularida kuy va ashulalarni tashkil etadigon tovushlarning joylashadigon o'rni, ya'ni pardalardir.

Maqom ma'lum lad asosiga mos keladigon va muayyan pardadan boshlanadigon kuy va ashulalar majmuasidir.

Maqom san'ati o'zining ko'p asrlik tarixiga egadir. Maqom so'zini eshitar ekanmiz xayolan qalbimizda o'z o'zidan sokinlik orom baxsh etuvchi kuylar, nolalar ko'z oldimizga keladi. O'zbek xalqining milliy qo'shiqlari, xammaga xam birdek manzur keladi desak adashmagan bo'lamiz. Milliyligimiz jo'sh urib turgan bu zaminda, san'atimiz yanada gullab yashnashi uchun biz yoshlar ko'proq izlanib, o'z ustimizda ishlab xar soxada teran va barkamol bo'lmog'imiz darkor.

Maqomlarda mavjud muhim musiqiy qatlamni xalq og'zaki musiqia ijodiyotining ko'hna namunalari tashkil etadi. Maqom san'atiga nazar tashlasak shoirlar tomonidan yozilgan g'azallar, shunday dilga yoquvchi navolar bilan chambarchas bog'liqlik, go'yoki buyuk bir ishq dardi bilan yo'g'irilgan maqomlar musiqasidir. Bu musiqia mazmunida pok muxabbat, go'zallik, sabr va ayniqsa haqiqat sari ma'naviylik o'z isbotini topdi. Asrlar osha o'z badiiyiligini yo'qotmasligi va hozirgi kungacha ko'plab insonlar qalbidan joy olibgina qolmay, ularga ma'naviy va ruhiy poklik bag'ishlab, insonlarni maqomlar sari yuksalishiga turtki bo'lgan ma'naviy navolardir.

Maqomchilik mumtoz an'alarini milliy rivojlantirish natijasida yuzaga kelgan Buxoro maqomlari, Xorazm maqomlari va Farg'ona-Toshkent maqom yo'llarining



majmuasidir. Buxoro maqom yo'llari va Xorazm maqomlari Shashmaqom tizimi tarzida, ulardan farqli o'laroq Farg'ona-Toshkent maqom yo'llari esa "tarqoq" tizim shaklida namoyon bo'ladi.

O'zbek-tojik xalqlari mumtoz musiqasi-Shashmaqom 18-asr o'rtalarida Buxoroda saroy kasbiy musiqachilari va musiqashunos olimlar tomonidan olti maqomdan iborat mahobatli turkum tarzida ifoda etilgan edi. Maqomlar quyidagicha nomlanadi:

- 1."Buzruk" ma'nosi – "katta", "ulug'", "buyuk".
- 2."Rost" ma'nosi – "to'g'ri", "chin", "haqiqiy".
- 3."Navo" ma'nosi – "kuy", "mungli kuy", "ishq kuyi".
- 4."Dugoh" – "ikki o'rin", "ikki joy", "ikki parda".
- 5."Segoh" – "uch o'rin", "uch joy", "uch parda".
- 6."Iroq" – ma'lum arab mamlakatining nomiga nisbatan berilgan.

Shashmaqom deganda avvalo tovush-pardalarining olti xil ko'rinishidagi mukammal uyishmasi tushiniladi

Maqom ijrochiligida "ustoz-shogird" an'anasi bor bo'lib, bu kasbiy musiqaning yuksak namunasi hisoblanadi.. Shashmaqomdagi har bir maqom ikki yirik bo'limdan - ya'ni cholg'u va aytim ashula yo'llaridan tashkil topgan. Buni faqatgina an'anaviy maktabida taxsil olgan "ustoz va shogird" ya'ni ashulachi-hofizlar va kasbiy cholg'uchilar ijro qila oladi. Maqom san'atini o'ranishga kelgan shogirdlar ustozga xurmat ko'rsatishi lozim. Masalan;

- ustoziga ko'p savollar bermasligi;
- savol bermoqchi bo'lsa ustozdan ruxsat so'rashi;
- ko'proq kitob mutola qilishi;
- ustozning oila a'zolari va qarindosh-urug'lariga hurmat bilan munosabatda bo'lishi;
- ustozning dushmani bilan do'st tutunmasligi;
- ustozning ko'rsatgan yo'l yo'riqlariga amal qilib sabrli bo'lishi;
- ustozning san'atiga taqlid qilishi;



-ustozni an'analarini davom ettirishi lozim bo'lgan.

Ma'lumki, maqomlar asosan og'zaki an'ana tarzida, ya'ni "ustozdan shogirdga "og'zaki uslub" vositasida yashab keladi. Shu bois shogirdlar ustozlarini ijrosidagi maqom namunalarini xotiralariga muhrlab, amaliy ijro jarayonida o'rganib kelganlar va ijodiy o'zlashtirganlar.

Farg'ona-Toshkent maqom cholg'u yo'llariga nazar tashlasak, kuylarini ijro etishda turli xil chog'ulardan foydalanish mumkin. Jumladan: nay, g'ijjak, dutor tanbur, sunray. Bu kuylar har xil vaziyatlarda cholinadi. Sunray yo'li xalq tomoshabinlari orasida ko'proq ijro etiladi. to'y bazimlarida, dorbozlar o'yinlarida, tanbur, g'ijjak dutor esa ko'proq "uy yig'inlarida", turli majlislarda ijro etiladi.

Farg'ona-Toshkent maqom cholg'u kuylarining ijro etuvchilar odatda kasbiy musiqachilar bo'lib, ular bu sa'natni maqomchi ustozlaridan o'rganadilar.

Bizgacha san'ati yetib kelgan ustoz sozandalar qatorida: Saidjon Kalonov, Sultonxon Hakimov, Abduqodir Ismoilov(nay), Muhiddin Hoji Najmiddinov(dutor, Tanbur), Maqsudxo'ja Yusupov (tanbur), Komiljon Jabborov(g'ijjak, dutor, tanbur), Turg'un Alimatov (tanbur, dutor, g'ijjak) kabi mahoratli ijrochilarni aloxida aytib o'tishimiz zarur.

Farg'ona -Toshkent ashula yo'llari (cholg'u yo'li) singari bir qismli va ko'p qismli ashula turkumlarini namoyon etadi. Masalan: "Segoh", "Munojot", "Toshkent irog'i".

Besh qismdan iborat turkum ko'rinishi nisbiy muqim tusini olgan bo'lib, bular: "Bayot", "Chorgoh", "Gulyor-Shahnoz", "Bayoti-Sheroziy" kabi ashula yo'llari besh qismdan iborat turkumli asarlardir.

Farg'ona-Toshkent maqom yo'llarining oxang tizimiga ashula, yalla, va katta ashula janrlarining xususiyatlari ma'lum ta'sirini ko'rsatgan, chunki bu ashulalar Farg'ona-toshkent musiqa uslubiga xos bo'lgan. Bu xol ularning usluban xaqchil, bo'lishi bilan birga xalq orasida keng yoyilganing sabablaridan biridir.

Ashulla yo'llari (Navoiy, Muqumiy, Uvaysiy, Bobur, Furqat va Nodira) g'azallari va mumtoz she'rlari orqali o'qiladi. Chunki bu ikkisi bir birga bog'liqdir. Shoirlar u



shoiralar tomonidan yozilgan she'riyatga e'tibor bersak, she'r va musiqa oldingi zamonlardan buyon bir biriga chambarchas bog'liq bo'lib kelgan. Go'zal shoiramiz

Nodirabegim xayoti va ijodi bizni e'tiborimizni tortdi. Ma'lumki:

Nodira-1792-yil Andijonda tavallud topgan bo'lib, uning asil ismi Mohlaroyim bo'lgan. Nodira uning adabiy taxallusi. Bundan tashqari Komila taxallusi bilan ham o'zbekcha she'rlar yozgan. Bu qalam sohibasi (ikki tilda ijod qilgan) shoirlarimizdan. Fors-tojik lisonidagi asarlarini maknuna taxallusi bilan yozgan.

Nodiradan xalqimizga ikki devon qoldi. Nisbatan to'la deyilgan turkey devonida 189 g'azal mavjud. Ulardan ayrimlari-tojikcha. Forsiy she'rlari "DEVONI MAKNUNA" da jamlangan. Bundan tashqari bitta muxammas, firoqnoma, bitta musaddas, bitta tarkiband meros qoldi. "Eshit" radifli g'azali, "Qilmag'il, zinhor izhor ehtiyoj" g'azali, "Oqibat", radifli kabi g'azallar yozgan. Uning ijodi adabiyotimizga katta xissa qo'shgan deb ayta olamiz. Uning asarlari odob axloqi va ma'naviy yetukligi aloxida o'rin tutadi. Nodira qalbimizdan joy olgan shoiralardan biri xisoblanadi. Uning yozgan she'rlari xamon xalqimiz orasida sevib o'qilib, o'rganib kelinmoqda. Nodiraning qalamiga mansub "Ey, sarvi ravon" she'ri bilan tanishamiz.

Ey, sarvi ravon.

Ey sarvi ravon, nadur xayoling?

Jon o'rtadi va'dai-visoling.

Payvasta duoyi xayr etarmen,

Maqsudim erur sening kamoling.

Ushshoqlaring g'amingda o'ldi,

Yo'qdur saning zarrayi maloling.

Ey xasta ko'ngul, firoq ichinda,



Dam urgani qolmadi majoling.

Ey Nodira, lof'iy ishq urarsen,
Mashxuri xaloyiq bo'ldi xoling.

“Ey, sarvi ravon”-asarida ko'rinib turibdi-ki, bosh qaxramon oshiq bo'lgan, yoriga nisbatan o'zining qalb kechinmalari, iztiroblari yu uni sog'inganini ifodalab beradi. Xamma qalblarni titratuvchi bu ishq, oshiqni o'z yoriga nisbatan ichki kechinmalarini aytadi. Uning go'zalligi yu sarv qomat ekanligini ta'kidlaydi. Shu ishq savdosi uni yori tomon chorlashini, lekin unga yetisha olmayotganini va oshiq qalbidagi azobni ifoda etadi. Oshiq aynan yorining unga beparvoligini, unga nisbatan sovuqqonligini bildiradi. Oshiqni bu ayriliq unga jismoniy va ruhiy zarar yetkazilayotganini ifodalangan. Bu esa inson qalbida chuqur bir iz qoldirishi mumkin albatta.

Bu asar “G'azal”. janrida yozilgan bo'lib, baytlardan iborat, har bir bayt ikki misradan tashkil topgan.

Qofiyala bir biriga juda mos keladi. Masalan: xayoling so'zi bilan visoling so'zi bir biriga mosdir. Xar bir misrada mazmun va moxiyat bor bo'lib, umumiy mavzuga har bir so'zi mos keladi. Asardagi so'zlar faqatgina insonga muxabbat berishdan tashqari, sinov va mashshqat manbai ekanligi xaqida yoritiladi. Shu sog'inch va sabr tufayli inson yanada kuchli va bardoshli bo'lishga intiladi. Asar juda ham ta'sirli yozilgan bo'lib, u tinglovchini qalbiga kirib boradi. Sevgi va azobni ifodalaydi. Asardagi ayrim badiiy so'zlarni tahlil qilamiz. Masalan:

1. Sarvi ravon-yuruvchi sarv.qomat.
2. Payvasta-uzluksiz, tinimsiz, davomli.
3. Duo'iy xayr-yaxshilik talab qilgan duo.
4. Ushshoq-oshiqlar.
5. Firoq-ayriliq.



6.Dam urgani-qarshi turmoq,ya'ni qarshilik qilish.

7.Xaloyiq-xalqlar,odamlar.

Shunday qilib “Ey,sarvi ravon”asari Nodiraning mumtoz adabiyotimizdan iz qoldirgan eng mashxur asarlari qatoridan joy olgan.

Xalq orasida taniqli va mashhur bo’lgan “Ey, sarvi ravon”asari,mashxur bastakor va sozanda Saidjon Kalonov tomonidan musiqasi yozilgan. Saidjon Kalonov O’zbekiston bastakorlik maktabining namoyondalaridan biri xisoblanadi.

1914-yilning 30 iyunida Farg’ona vodiysining Chust tumani Karkidon qishlog’ida tavallud topgan.Oddiy hunarmand oilasida tug’ilgan.Saidjon Kalonov xayoti davomida o’qib izlanib,bir qancha asarlar yaratib,san’atimiz gullab yashnashiga o’z xissasini qo’shgan bastakordir.

Saidjon Kalonov bastakorlik san’atini puxta egallab,o’z iste’dodini namoyon etgan.Avvalgi davr taqozosi bilan vatanparvarlik ruhidagi ,ishq-muhabbat mavzularida asarlar yozgan .Masalan:

“O’zbekistondan salom”,”Dilnavozim”,”Quyoshli o’lkam”,”Visol gulshani”,”Ey, sarvi ravon” kabi asarlarni yaratdi.Bastakorning “Ey,sarvi ravon”,asari o’zining ma’naviy-milliyligi bilan ajralib turadi.O’zbek xalqining qalb nidolarini kuylovchi,milliy an’analarini aks etturuvchanligi bilan alohida etirof etiladi.

Bu asar musiqa ijrochiligida keng ommalashgan namunalariga aylanganligi,ularda mumtozlikni xususiyati bilan zamonga moslashish jihatlarining uyg’unligidan dalolatdir.Bu asar avvaliga qo’shiq janri xususiyatlari doirasida ijod etilgan.Ijro amaliyotida esa keying rivojini kuzatish mumkin.Asar rivojlanib ashula shakliga xos xususiyatlar bilan sug’orilgan.

Mazkur navo xalq orasida sevimli qo’shiq xisoblanadi.Xar bir qo’liga soz olgan xonanda va sozandalar bu asarni ijro etishga xarakat qiladilar.Undagi bor go’zallik va nafislikni ijro etishga xarakat qilib tinglovchiga xush kayfiyat taqdim etadilar.



Shu sababdan ham Ey,sarvi ravon asari ko'plab san'atkorlarning ijod ishlaridan mustaxkam o'rin olib,uni bezab yanada mazmuni moxiyatini xalqga namoyon etib,ijro qilib kelmoqdalar.

Ko'plab xonandalarimiz bu asarni ijro qilib kelmoqdalar,lekin bu asarni ilk ijrochisi Ergash Yo'ldoshovdir.Bu asar uzoq yillardan beri xonandalar tomonidan ijro etilib xalq sevgan mumtoz ashulalar qatoridan o'rin olib kelmoqda.

XULOSA

Nodiraning betakror g'azali bo'lgan "Ey,sarvi ravon"va unga kuy bastalagan bastakorimiz Saidjon Kalonovning musiqasi sog'inch, sevgi va badiiylikni, go'zallikni birlashtirgan durdona asardir.Asardagi har bir so'z o'z mazmun mohiyatiga egadir.Saidjon Kalonov musiqani shunday bastalaganki asardagi so'zlar bilan no'talar uyg'unlashib, oshiqning ichki kechinmalarini,iztiroblarini,sog'inchini ifodalalab bergan."Ey,sarvi ravon" deyilganda sarvi qomat yor tasvirlangan bo'lsa,"xasta kongul",deyilganda yorga nisbatan ko'ngli xasta ekani ifodalangan.Musiqqa bu insonni manaviy yetuklikka chorlaydi.Unda xar bir xalqning milliy an'analari,qadiryatlari,marosim va urf-odatleri munosib o'rin olgan.Musiqqa san'atining namoyondalari bo'lmish xonanda va sozanda,bastakorlarimiz xalq madaniyatining o'ziga xos mutasaddilari sifatida e'zozga loyiq ko'rilgan.Jumladan: Saidjon Kalonov xam 1950-yili O'zbekiston xalq artisti faxriy unvoni, bir necha faxriy yodgorliklar va orden, medallar bilan mukofotlangani so'zimizning isbotidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Ibroximov,O (2018).Maqom asoslari.(1)7-8.
- 2.Yunusov,R.(2018).O'zbek maqomlari.
- 3.O'zbek adabiyoti.(2011).Ma'ruzalar matni.
- 4.Soibjon Begmatov.Bastakorlar ijodi.(1)101-102.
- 5.Isxoq Rajabov.(1992)Maqom asoslari.(1)6-7.